

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalimzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 208-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH
Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlari hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208





DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARIDAN FOYDALANISHDA MOLIYAVIY NAZORATNI KUCHAYTIRISH YO'LLARI

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

mustaqil izlanuvchisi

E-mail: bgafurov@senat.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada Davlat budjetidan samarali foydalanish va nazoratni kuchaytirish uslublari yoritilgan bo'lib, daromadlar tegishli xarajatlarga yo'naltirilishi moliyaviy nazorat orqali amalga oshirilayotgani yoki aksincha, teskari holatda ekanligi keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: budjet, budjet jarayoni, budjetdan moliyalashtirish, budjet tashkiloti, moliyaviy nazorat, moliyaviy nazorat tamoyillari, davlat moliyaviy nazorati, moliyaviy nazorat subyektlari, moliyaviy nazorat obyektlari.

Аннотация. В данной статье освещены методы эффективного использования средств государственного бюджета и усиления финансового контроля, а также рассмотрено, осуществляется ли направление доходов на соответствующие расходы посредством финансового контроля, либо наблюдается обратная ситуация.

Ключевые слова: бюджет, бюджетный процесс, бюджетное финансирование, бюджетная организация, финансовый контроль, принципы финансового контроля, государственный финансовый контроль, субъекты финансового контроля, объекты финансового контроля.

Abstract. This article highlights methods for the effective use of state budget funds and strengthening financial control, and examines whether the allocation of revenues to corresponding expenditures is carried out through financial control, or whether the opposite situation is observed.

Keywords: budget, budget process, budget financing, budget organization, financial control, principles of financial control, state financial control, subjects of financial control, objects of financial control.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliyaviy nazorat mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining barqaror hamda samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. U moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, mablag'larning maqsadli sarflanishi va moliyaviy intizomning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy nazorat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlik va sifat ko'rsatkichlarini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, budjet jarayonining asosiy bosqichlaridan biri davlatning moliyaviy nazorati bo'lib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan nazorat faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Davlat budjeti davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda asosiy moliyaviy vosita bo'lib, budjet mablag'lari taqsimotchilarining ehtiyojlarini moliyalashtirish orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va boshqa muhim yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois budjet mablag'larini samarali





boshqarish va ulardan oqilona foydalanish mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Biroq iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida budget tizimi oldida qator dolzarb masalalar ham yuzaga kelmoqda. Xususan, budget mablag'laridan foydalanishda samaradorlikni oshirish, moliyaviy resurslarning maqsadli sarflanishini ta'minlash hamda budget taqchilligi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish doimiy e'tibor talab etadi.

Bugungi kunda moliya, budget va soliq intizomiga rioya etish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Budget mablag'larining maqsadsiz sarflanishi, moliyaviy intizom buzilishlari va boshqaruvdagi ayrim kamchiliklar davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, budget mablag'laridan foydalanishda qonuniylik, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash, aniqlanayotgan xato va kamchiliklarning sabablarini chuqur tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish moliya va nazorat-taftish organlari faoliyatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Budget mablag'laridan foydalanish ustidan samarali davlat nazoratini amalga oshirishda moliyaviy nazorat organlari faoliyatini ham takomillashtirib borish muhim ahamiyatga egadir. Samarali nazoratni tashkil etishda budget munosabatlarida ishtirok etuvchi tashkilotlar o'rtasida o'zaro ma'lumot almashish tizimi ham muhim rol o'ynaydi. Bu borada budget tashkilotlarini moliyalashtiruvchi moliya organlari bilan tijorat banklari, soliq va bojxona organlari, tovar xom-ashyo birjasi va uning savdo maydonchalari o'rtasida o'zaro axborot almashishini yanada mukammallashtirish budget mablag'laridan oqilona va maqsadli foydalanishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat moliya tizimi va budgetning iqtisodiy mohiyati qadim zamonlardan iqtisodchilar tomonidan o'rganila boshlangan. Masalan, klassik iqtisodiy nazariya asoschilari U.Petti, A.Smit va D.Rikardo tomonidan davlat budjeti daromadlari shakllanishida soliq tizimining o'rni va vazifalari keng yoritilgan. Ular davlatni iqtisodiyotga minimal ishtiroki tarafdorlari bo'lib, davlatning asosiy vazifalari mudofaa va ijtimoiy masalalar deb belgilaganlar. Bozor munosabatlari esa, ularning fikricha, talab va taklif qonuniga asosan muvofiqlashadi.

Yalpi talab darajasini pasayishida davlatning aralashuvi masalalari birinchi marta A.Marshallning ilmiy ishlarida tahlil qilingan. Iqtisodiyotga davlat aralashuvi, jumladan budget tomonidan uni barqarorlashtirish masalalari J.M.Keynsning ilmiy izlanishlarida ham atroflicha yoritilgan [2].

Buyuk sharq faylasuf olimlari Ibn Xaldun va Al-Forobiylarning asarlarida davlat xarajatlari va uning mohiyati ochib berilgan.

Iqtisod fanlari doktorlari T.S.Malikov va A.V.Vahobovlar tomonidan «barcha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat





deyiladi» deya ta'kidlangan. Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunchilikka rioya etilishi, moliyaviy xo'jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, moliyaviy nazorat u yoki bu moliyaviy harakat sodir bo'lishining baholashni o'z ichiga olish bilan cheklanmasdan, balki o'zining analitik yo'nalishiga ega [1].

Budjet daromadlariga professorlar T.S.Malikov va N.X.Haydarovlar «pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi budjet daromadlari hisoblanadi» deya fikr bildirganlar [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning holatini tahlil qilishda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to'g'risidagi qonun ilovalari va rasmiy statistik ma'lumotlar asosida statistik tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya, sintez va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat budjeti mablag'larini shakllantirishda uning ham xarajatlar qismini, ham daromadlar qismini belgilash muhimdir, chunki budjetning daromadlari va xarajatlari o'zaro bir-birini taqozo etadi, uni to'liq hisobga olmaslik noxush oqibatlarni keltirib chiqaradi. Budjet siyosatining asosiy yo'nalishi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalari o'rtasida qayta taqsimlash va respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirishdan iboratdir.

Budjet jarayonlarida, jumladan, budjet ijrosini qat'iy ta'minlashda budjetdan birinchi darajali ustuvor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish, budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda ayrim yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashtirilishi va islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Budjet jarayonini amaldagi qonunchilik asosida, budjet ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish, budjetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish hamda mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish, budjet intizomini ta'minlash tizim oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.





1-jadvalda iste'mol narxlari indeksidan boshqa barcha ko'rsatkichlarda o'sishni ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinadiki, keyingi yillarda bozordagi asosiy tovarlar va xizmatlar o'rtacha narxining pasayishi kutilmoqda.

1-jadval

2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2027-2028-yillarga maqsadli mo'ljallar [4]

T/r	Ko'rsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	2027-yil	2028-yil
1.	Yalpi ichki mahsulot, trln so'm	1 976	2 256	2 576
2.	Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	6,6	6,8	6,9
3.	Iste'mol narxlari indeksi, o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	7	5-6	5
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	6,4	6,7	6,9
5.	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	4,2	4,3	4,3
6.	Xizmatlar ko'rsatishning o'sish sur'ati, foizda	14,5	14,3	14,4

Shuningdek, prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, 2026–2028-yillarda yalpi ichki mahsulot hajmi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqaror oshishi kutilmoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sohasi va sanoat tarmoqlarida yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolishi rejalashtirilgan.

Bunda moliyaviy nazorat organlari tomonidan davlat mablag'larining iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini baholash, budget mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish hamda ajratilgan resurslarning natijadorligini monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalarini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirilayotgan mablag'larning samaradorligini muntazam tahlil qilish, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishishda moliyaviy intizomni ta'minlash va mablag'lardan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni barvaqt aniqlash zarur. Bu esa davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2-jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, 2026–2028-yillarga mo'ljallangan konsolidatsiyalashgan budget prognoziga ko'ra, budget daromadlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2026-yildagi 515,8 trln so'mdan 2028-yilda 663,2 trln so'mga yetishi kutilmoqda. Daromadlarning asosiy qismini davlat budjeti daromadlari tashkil etib, ular mazkur davrda sezilarli ravishda oshib boradi.

Budget xarajatlari ham yuqori sur'atlarda o'sib, 2026-yildagi 567,7 trln so'mdan 2028-yilda 732,6 trln so'mga yetadi. Xarajatlar tarkibida davlat budjeti xarajatlari hamda davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari asosiy ulushni egallaydi. Shuningdek, tashqi qarz hisobidan moliyalashtiriladigan davlat dasturlari xarajatlarining ham ortishi kuzatiladi.

Prognoz davrida umumiy fiskal balans kamayishda davom etib, budget defitsiti 2026-yildagi 60,2 trln so'mdan 2028-yilda 78,1 trln so'mga qadar oshishi





kutilmoqda. Bu esa xarajatlarning daromadlarga nisbatan tezroq o'sayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan budjetining jamlanma parametrlari hamda 2027-2028-yillarga budjet mo'ljallari [5], mlrd.so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	2027-yil	2028-yil
I	Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari	515 809,8	515 809,8	515 809,8
1.	Davlat budjeti daromadlari	368 918,3	368 918,3	368 918,3
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari	78 623,0	87 490,2	101 488,2
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tushumlar	24 315,4	25 361,4	26 624,0
4.	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalariga tushumlar	43 953,1	46 590,3	48 919,8
II	Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari	567 738,1	644 465,3	732 557,8
1.	Davlat budjeti xarajatlari	328 706,6	384 935,0	449 096,5
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari	148 399,2	161 180,0	176 239,2
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining sarflanishi	24 315,4	25 361,4	26 624,0
4.	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining sarflanishi	43 953,1	46 590,3	48 919,8
5.	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	22 363,8	26 398,6	31 678,3
III.	Davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun depozitlar, budjet ssudalari va kredit liniyalari saldosi	8 223,4	8 874,5	8 761,5
IV.	Davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlar	74 022,0	75 717,7	78 837,4
V.	Davlat budjetiga transfertlar	13 200,0	15 500,0	16 500,0
VI.	Umumiy fiskal balans (profitsit +, defitsit -)	-60 151,7	-68 365,9	-78 118,5
VII.	Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari saldosi (profitsit +, defitsit -)	-29 564,4	-33 092,9	-37 678,7
VIII.	Davlat qarzlari so'ndirish	49 198,8	51 340,8	72 182,4

Davlat qarzi bilan bog'liq xarajatlarda ham o'sish kuzatiladi. Xususan, davlat qarzlari so'ndirish uchun yo'naltiriladigan mablag'lar 2026-yildagi 49,2 trln so'mdan 2028-yilda 72,2 trln so'mga yetadi. Bu holat davlat moliyasida qarz yukining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, prognoz ko'rsatkichlari budjet daromadlarining o'sishi va iqtisodiy faollikning kengayishini aks ettirsa-da, budjet defitsiti hamda qarz majburiyatlarining ortishi kelgusida fiskal barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralarni talab qilishi mumkin.

Mazkur holat yuzasidan quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

1. Budjet daromadlari bazasini kengaytirish orqali fiskal barqarorlikni mustahkamlash, bunda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda yangi investitsiya loyihalarini jalb etish muhim ahamiyatga ega.





2. Budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish zarur. Davlat xarajatlarini natijadorlik tamoyili asosida rejalashtirish, kam samarali dasturlarni optimallashtirish va mablag'lardan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish tavsiya etiladi.

3. Budjet defitsitini bosqichma-bosqich qisqartirish maqsadida xarajatlarning o'sish sur'atlarini daromadlar o'sishiga moslashtirish lozim. Bu kelgusida fiskal xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

4. Davlat qarzi boshqaruvini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Tashqi qarz mablag'larini yuqori iqtisodiy samara beradigan loyihalarga yo'naltirish hamda qarz yukining ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

5. Davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatini optimallashtirish orqali ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish va budjetga bo'lgan qaramligini kamaytirish tavsiya etiladi.

6. Investitsion va eksport salohiyatini oshirish hisobiga iqtisodiy o'sishni jadallashtirish lozim. Bu esa o'z navbatida budjet daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

7. Davlat qarzlarini so'ndirish xarajatlarining ortishini inobatga olib, o'rta va uzoq muddatli qarz strategiyasini ishlab chiqish hamda qarz portfelini diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Umuman olganda, 2026–2028-yillarda budjet daromadlari va xarajatlarining o'sishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, fiskal defitsit hamda davlat qarzi bilan bog'liq xarajatlarning ortishi moliyaviy nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirishni talab etadi.

Shu munosabat bilan, budjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, davlat dasturlari va investitsiya loyihalarining natijadorligini muntazam monitoring qilish, tashqi qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash hamda moliyaviy intizomni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa budjet mablag'laridan oqilona foydalanish, defitsit darajasini maqbullashtirish va davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2008. – 316 b.

2. Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh.A. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent, 2020. – 14 b.

3. Malikov T.S. Budjet-soliq siyosati. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019.

4. «2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi Qonunning 2-ilovasi. <https://lex.uz/>

5. «2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi Qonun loyihasining 3-ilovasi. <https://lex.uz/>

6. "Science and Education" jurnali. <https://openscience.uz>.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**